



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА	17
Джуманиязова Сабина Михайловна	
PAHTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQUISH	22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
F. Djalilov	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH	41
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	47
Махкамова Надира Саидмуратовна	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	55
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020-2024-YILLAR)	60
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH.....	65
Tashmatov Shuhrat Hamrayevich	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	71
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI	77
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna	
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	83
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
Sabirova Nodira Komil qizi	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi	
XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	101
Avazbek Xalbekov	
IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC	108
Musaeva Shoira Azimovna	
YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	116
Yuldashev Abduxakim Abdukarimovich	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	122
Анвар Аллабергенов	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	128
Allanazarova B.K.	
BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI.....	135
Azimova Muxlisa Alisherbekovna	
KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH.....	139
Atamuratova Gulrux Muzafarovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	145
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV DARAJASINI NORMALLASHTIRILGAN ENTROPIYA INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH.....	149
Razikov Otabek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI.....	157
Matkabalova Dilorom Xalilullayevna	
MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH. (Xorazm viloyati misolida)	165
Bekjanov Dilmurod Yuldashevich	
Narmetova Dilafuz Azamatovna	



MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH (Xorazm viloyati misolida)

Bekjanov Dilmurod Yuldashevich

Urganch davlat universiteti "Ijtimoiy -iqtisodiy fanlar" fakulteti

"Biznes va boshquv" kafedrasini mudiri, iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Narmetova Dilafuz Azamatovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti stajyor o'qituvchisi

Email: narmetovadilafuzazamatovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lgan hududlar raqobatbardoshligini oshirish masalalari, xususan, Xorazm viloyati misolida tahlil qilinadi. Mintaqa raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi yoritilgan. 2025-yilga mo'ljallangan strategik maqsadlar va prognoz ko'rsatkichlari asosida viloyatning iqtisodiy salohiyati baholanadi. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, solishtirish va ekspert baholash usullaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatining raqobatbardoshligini oshirishda agrosanoat klasterlarini rivojlantirish, transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: mintaqa, raqobatbardoshlik, iqtisodiy o'sish, investitsiya, YHM (yalpi hududiy mahsulot), klaster, 2025-yil strategiyasi, aholi daromadlari.

Abstract: This article examines the issues of enhancing regional competitiveness, which is an important component of the national economy, using the case of the Khorezm region. The study highlights the internal and external factors affecting regional competitiveness, as well as the interrelationship between economic, social, and innovation indicators. Based on the strategic objectives and forecast indicators for 2025, the economic potential of the region is assessed. Statistical analysis, comparative analysis, and expert evaluation methods were employed in the research process. The findings indicate that the development of agro-industrial clusters, modernization of transport and logistics infrastructure, and attraction of investments into the tourism sector are of significant importance for improving the competitiveness of the Khorezm region.

Keywords: region, competitiveness, economic growth, investment, GRP (Gross Regional Product), cluster, 2025 strategy, population income.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения конкурентоспособности регионов как важной составляющей национальной экономики на примере Хорезмской области. Освещаются внутренние и внешние факторы, влияющие на конкурентоспособность региона, а также взаимосвязь экономических, социальных и инновационных показателей. На основе стратегических целей и прогнозных показателей на 2025 год оценивается экономический потенциал области. В ходе исследования использованы методы статистического анализа, сравнительного анализа и экспертной оценки. Результаты показывают, что развитие агропромышленных кластеров, модернизация транспортно-логистической инфраструктуры и привлечение инвестиций в туристическую сферу имеют важное значение для повышения конкурентоспособности Хорезмской области.

Ключевые слова: регион, конкурентоспособность, экономический рост, инвестиции, ВРП (валовой региональный продукт), кластер, стратегия 2025 года, доходы населения.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar markazida hududlarni kompleks rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish muhim o'rin tutadi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida alohida mintaqalar nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham o'z o'rnini topishga intilmoqda. Mintaqa raqobatbardoshligi – bu hududning o'z resurslaridan samarali foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va investitsiyalarni jalb etishda boshqa hududlardan ustun turish qobiliyati hisoblanadi.

Xorazm viloyati – o'ziga xos tarixiy merosga, qishloq xo'jaligi va turizm sohalarida katta salohiyatga ega bo'lgan mintaqadir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida [1] hamda 2025-yilga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarida hududlarning eksport va investitsion salohiyatini oshirish vazifalari belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan, Xorazm viloyatining 2025-yil istiqbollarda raqobatbardoshligini tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Xorazm viloyatining 2025-yil prognoz ko'rsatkichlari asosida raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tizimli tahlil qilish va mintaqaviy rivojlanish istiqbollarini ilmiy asoslab berish muhim hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqa raqobatbardoshligi va iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish masalalari iqtisodiyot fanida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzuni tadqiq etishda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro tashkilotlarning tahliliy hisobotlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Avvalo, mintaqa raqobatbardoshligi nazariyasining ilmiy asoslari Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan “raqobat ustunligi” konsepsiyasiga borib taqaladi. Unga ko'ra, hududlar o'zining resurslari, infratuzilmasi, innovatsion salohiyati va boshqaruv tizimi orqali raqobatbardoshlikka erishadi. Porterning “klasterlar nazariyasi” esa hududiy iqtisodiy rivojlanishda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish subyektlarining o'zaro integratsiyasi muhimligini asoslab beradi. Ushbu yondashuv Xorazm viloyatida agro-sanoat va turizm klasterlarini rivojlantirish zaruratini ilmiy jihatdan izohlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda mintaqa raqobatbardoshligini baholashda kompleks yondashuv ustuvor hisoblanadi. Xususan, World Bank tomonidan ishlab chiqilgan hisobotlarda hududlarning iqtisodiy o'sishi, investitsion jozibadorligi, infratuzilma rivoji va inson kapitali asosiy omillar sifatida ko'rsatiladi. Bankning 2023-yildagi hisobotida O'zbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi uchun “yashil iqtisodiyot”, transport-logistika tizimlari va suv resurslarini samarali boshqarish muhimligi ta'kidlangan.

Shuningdek, United Nations Development Programme (BMT Taraqqiyot dasturi) tadqiqotlarida hududiy rivojlanish inson kapitali, ijtimoiy tenglik va ekologik barqarorlik bilan chambarchas bog'liqligi qayd etiladi. Bu esa mintaqa raqobatbardoshligini faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki ijtimoiy farovonlik darajasi orqali ham baholash zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham mazkur yo'nalishda muhim ilmiy ishlanmalar amalga oshirilgan. Jumladan, I.A. Karimovning mintaqaviy iqtisodiyotga oid tadqiqotlarida hududlarning tabiiy resurslari, demografik salohiyati va infratuzilma rivoji iqtisodiy o'sishning asosiy omillari sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv Xorazm viloyatining agrar yo'nalgan iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish zaruratini asoslaydi.

Mahalliy tadqiqotchilar, xususan, B. Toshboyev va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan hududiy raqobatbardoshlikni baholash metodologiyasi mintaqalarni kompleks indeks asosida tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu metodologiyada iqtisodiy, investitsion, ijtimoiy va innovatsion ko'rsatkichlar integrallashgan holda baholanadi, bu esa tadqiqotda qo'llanilgan indeks usulining ilmiy asoslanganligini tasdiqlaydi.

Suv resurslari va ekologik omillar masalasi ham mintaqa raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu borada S. Raximovning ilmiy ishlarida Orolbo'yi hududlarida suv tanqisligi va uning iqtisodiy oqibatlarini chuqur tahlil qilingan. Muallif suvdan samarali foydalanish texnologiyalarini joriy etish orqali qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. Bu esa Xorazm viloyati uchun strategik ahamiyatga ega.

Normativ-huquqiy asoslar ham ushbu tadqiqotda muhim o'rin tutadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” hududlar rivojlanishini jadallashtirish, investitsiyalarni jalb qilish va eksport salohiyatini oshirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [2]. Mazkur hujjat mintaqa raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Davlat statistika ma'lumotlari esa hududlarning real iqtisodiy holatini aks ettiruvchi asosiy empirik manba hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2020–2024-yillarga oid ma'lumotlari Xorazm viloyatining iqtisodiy dinamikasini, o'sish sur'atlarini va tarkibiy o'zgarishlarini tahlil qilish imkonini beradi [3].

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mintaqa raqobatbardoshligini oshirish kompleks yondashuvni talab etadi. Ya'ni:



- iqtisodiy o'sish va sanoat rivoji;
 - investitsion muhitni yaxshilash;
 - infratuzilmani modernizatsiya qilish;
 - inson kapitalini rivojlantirish;
 - ekologik muammolarni hal etish
- o'zaro uyg'un holda amalga oshirilishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda qo'llanilgan ilmiy yondashuvlar va manbalar Xorazm viloyatining raqobatbardoshligini baholash va uni oshirish yo'llarini aniqlashda yetarli darajada nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot usullari:

- Statistik tahlil: iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari, solishtirma og'irliklarni hisoblash.
 - Solishtirish usuli: Xorazm viloyati ko'rsatkichlarini respublika o'rtacha ko'rsatkichlari va qo'shni viloyatlar (Buxoro, Qoraqalpog'iston) bilan taqqoslash.
 - SWOT tahlili: mintaqaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash.
 - Indeks usuli: raqobatbardoshlik indeksini hisoblashda integrallashgan yondashuv.
- Mintaqa raqobatbardoshligini baholash uchun quyidagi asosiy bloklar ajratib olindi:
 Iqtisodiy blok: YaHM hajmi, o'sish sur'ati, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsuloti.
 Investitsion blok: asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI).
 Eksport bloki: eksport hajmi, eksport diversifikatsiyasi.
 Ijtimoiy blok: aholi bandligi, o'rtacha ish haqi, aholi jon boshiga daromad.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyati O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, katta tarixiy va madaniy merosga ega. Mintaqa iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi va turizm yetakchi o'rinni egallaydi (1-jadval).

1-jadval.
Xorazm viloyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi¹ (2023-2025-yillar)

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2023 y. (hisobot)	2024 y. (baholash)	2025 y. (prognoz/ maqsad)	O'sish sur'ati (2025/2023 %)
Yalpi hududiy mahsulot (YaHM)	mlrd. so'm	34 800	39 200	44 500	127.8
Sanoat mahsuloti	mlrd. so'm	12 100	14 500	17 800	147.1
Qishloq xo'jaligi mahsuloti	mlrd. so'm	15 200	16 100	17 500	115.1
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	mlrd. so'm	9 400	11 200	13 500	143.6
Eksport hajmi	mln. USD	195	230	280	143.5
Xorijiy investitsiyalar	mln. USD	85	110	150	176.4
O'rtacha ish haqi	so'm	4 200 000	4 800 000	5 400 000	128.5

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2025-yilga mo'ljallangan ko'rsatkichlar iqtisodiy o'sishning barqaror tendensiyasini ko'rsatadi. YaHMning 2025-yilda 44,5 mlrd so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bu esa o'tgan yillarga nisbatan sezilarli o'sishni anglatadi. Xususan, sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning 47 foizga o'sishi (2023-yilga nisbatan) viloyatda sanoat salohiyatini oshirish borasidagi islohotlar samarasidir.

Raqobatbardoshlikning muhim ko'rsatkichlaridan biri bu investitsiya jalb qilishdir. 2025-yilda Xorazm viloyatiga keltiriladigan xorijiy investitsiyalar hajmi 150 mln AQSH dollarini tashkil qilganligi keltirilmoqda. Bu 2023-yil ko'rsatkichidan deyarli 2 baravar ko'pdir. Bu o'sishga asosan quyidagilar sabab bo'lmoqda:

- "Xiva" va "Pitnak" erkin iqtisodiy zonalarida yangi korxonalar qurilishi.
- Avtomobil yo'llari va "Urganch-Xiva" temir yo'l tarmog'ini modernizatsiya qilish.
- Quyosh energetikasi stansiyalari qurilishiga jalb etilayotgan sarmoya.

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari va viloyat dasturi asosida tuzilgan [2, 3].



Xorazm viloyatining eksport salohiyatini oshirish uning tashqi iqtisodiy faollikdagi o'rnini belgilaydi. 2025-yilda eksport hajmini 280 mln AQSH dollariga yetkazish belgilangan. Eksport tarkibida quyidagi o'zgarishlar kuzatilmoqda: agar avval asosan xom ashyo (paxta, meva-sabzavot) eksport qilingan bo'lsa, 2025-yilga kelib tayyor mahsulotlar (tekstil buyumlari, qurilish materiallari, oziq-ovqat sanoati mahsulotlari) ulushining oshishi kuzatilmoqda.

Viloyatda tashkil etilgan "Xorazm" va "Xiva" klasterlari tarkibida 2025-yilga qadar 15 ta yangi ishlab chiqarish obyekti ishga tushirilishi belgilangan edi. Bu esa mahalliy resurslarga asoslangan holda yuqori qo'shimcha qiymat yaratish imkonini beradi.

Mintaqa raqobatbardoshligini baholashda aholi farovonligi muhim mezon hisoblanadi. 2025-yilda o'rtacha ish haqi 5,4 million so'mni tashkil etmoqda. Aholi jon boshiga YaHM hajmi 2025-yilda 44 142 so'mdan oshishi kuzatildi (2023-yilda taxminan 10,0 so'm). Bu ko'rsatkich respublika o'rtacha darajasidan biroz past bo'lsa-da, o'sish sur'atlari qoniqarli darajada.

Tadqiqot natijalari asosida Xorazm viloyatining raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha tahlil qilish mumkin, ya'ni SWOT tahlil.

Kuchli tomonlari (Strengths):

Turizm salohiyati: «Xiva» shahrining YUNESKO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi va «Ipak yo'li» loyihalari doirasida xalqaro turizmning rivojlanishi mintaqa iqtisodiyotiga keng imkoniyatlar yaratmoqda [4]. 2025-yilda turizm xizmatlari eksportidan tushumlar 50 mln AQSH dollaridan oshishi kuzatilgan.

Agro-sanoat kompleksi: dehqonchilikka yaroqli yerlar va qulay iqlim sharoiti qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash uchun zamin yaratadi.

Mehnat resurslari: mintaqada aholi sonining o'sishi va yoshlar ulushining yuqoriligi mehnat bozorini rivojlantirish uchun qulay.

Zaif tomonlari (Weaknesses):

Sanoat infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyatlari: viloyatda yirik sanoat korxonalarini sonini ko'paytirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash ko'lamini kengaytirish uchun salohiyat mavjud.

Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati: Orolbo'yi hududining ekologik xususiyatlari va mavjud suv resurslari sharoitida zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Logistika infratuzilmasini takomillashtirish ehtiyoji: viloyatning transport-kommunikatsiya imkoniyatlarini yanada rivojlantirish mahsulotlar harakatini jadallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

2025-yildagi imkoniyatlar (Opportunities):

Davlat tomonidan hududlarni rivojlantirishga ajratilayotgan mablag'lar va 2025-yil uchun mo'ljallangan dasturlar quyidagi imkoniyatlarni berdi:

- Energetika mustaqilligi: quyosh va shamol energetikasi stansiyalarini qurish orqali viloyatning energiya ta'minotini mustahkamlash va «yashil energiya» eksportini yo'lga qo'yish.
- Tarmoqlararo integratsiya: turizm va qishloq xo'jaligini bog'lash, ya'ni agroturizmni rivojlantirish.
- Eksport geografiasini kengaytirish: Markaziy Osiyo mamlakatlari (Qozog'iston, Turkmaniston) bilan chegaradosh bo'lganligi sababli, Yangi ipak yo'li transport yo'laklariga qo'shilish imkoniyati.

Tahdidlar (Threats):

- Iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi.
- Xalqaro bozorlarda xom ashyo narxlarining o'zgaruvchanligi.
- Yuqori malakali kadrlarning boshqa mintaqalarga (ayniqsa Toshkent shahriga) migratsiyasi.

Xorazm viloyatining 2025-yil ko'rsatkichlarida YaHM o'sish sur'atini yiliga kamida 6–7 foizga oshirishni ta'minlash zarur. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023–2024-yillardagi o'sish taxminan 6,5–7,0% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkichni 8% gacha oshirish ko'zda tutilgan edi [3]. Bu maqsadga erishish uchun faqat an'anaviy tarmoqlar (paxtachilik) emas, balki yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlar (elektronika, kimyo, to'qimachilik)ni rivojlantirish kerakligi belgilanib, amalga oshirildi.

Investitsiya jalb qilish bo'yicha 2025-yil ma'lumotlariga ko'ra, xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi (taxminan 60%) energetika va transport sohalariga to'g'ri keladi. Qolgan qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, kichik biznes subyektlarining soliq yuki va moliyaviy imkoniyatlarini yengillashtirish ularning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazm viloyati misolida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, mintaqa raqobatbardoshligini oshirish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. 2025-yil ko'rsatkichlariga asosan, viloyat o'z iqtisodiy salohiyatini oshirish va aholi farovonligini yaxshilash yo'lida muhim qadamlar qo'yimoqda.



Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni beradi:

Iqtisodiy o'sishning barqarorligi: 2025-yilda YaHMning o'sishi va sanoat ishlab chiqarishining deyarli 1,5 barobar oshishi viloyatning agrar yo'naltirilganlikdan sanoat-agrar yo'naltirilganlikka o'tishini tasdiqlaydi.

Investitsiya jozibadorligi: xorijiy investitsiyalarning keskin o'sishi (2025-yilda 150 mln AQSH dollari) mintaqaviy infratuzilmaning yaxshilanayotganidan dalolat beradi.

Eksport imkoniyatlari: eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushini oshirish mintaqa iqtisodiyotining tashqi shoklarga chidamliligini oshiradi.

Takliflar:

- Xorazm viloyatining transport-logistika imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ayniqsa, "Termiz–Xiva–Astraxon" yo'nalishidagi xalqaro transport yo'laklarini rivojlantirish lozim.

- Suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha zamonaviy sug'orish texnologiyalari (tomoq sug'orish, tomchilatib sug'orish)ni joriy etishni 2025-yilga qadar 50 ming gektarga yetkazish kerak.

- Turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish, xususan, Xiva shahrini "Yopiq shaharcha" (Closed City) maqomidan chiqarib, xizmatlar sifatini oshirish orqali xorijiy sayyohlar oqimini 2026-yilda 2 barobarga oshirish mumkin.

- Viloyatda IT-parkni rivojlantirish va aholining raqamli savodxonligini oshirish orqali xizmatlar eksportini yo'lga qo'yish zarur.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilganda Xorazm viloyatining 2026-yil strategik maqsadlariga erishilishi va O'zbekistonning raqobatbardosh mintaqalaridan biriga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 04.04.2022-yildagi "2022 — 2026-yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 154-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-5939831>
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha statistik to'plam (2020-2024). – Toshkent, 2024.
4. Karimov, I.A. (2020). Mintaqaviy iqtisodiyot va hududlarni rivojlantirish masalalari. Toshkent: «Fan va texnologiyalar» nashriyoti.
5. Raximov, S. (2023). "Orolbo'yi hududlarida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari". Iqtisodiyot va ta'lim, 4(2), 45-52.
6. Porter, M.E. (1998). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press. (Mintaqaviy raqobatbardoshlik nazariyasi asoslari).
7. World Bank. (2023). Uzbekistan Country Climate and Development Report. Washington, DC.
8. Toshboyev, B. va boshqalar. (2022). "Hududiy raqobatbardoshlikni baholash metodologiyasi". Xalqaro iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, 6(1), 12-19.
9. Axmedov B. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2021.
10. Yusupov K., Nazarov A. «Klaster yondashuvi asosida mintaqa iqtisodiyotini modernizatsiyalash» // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – №4.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>